



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3487-3
2026 - yil 11 - Aprel

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISH AGENTLIGI
DIREKTORINING BUYRUG'I

**O'zbekiston Respublikasining Yagona milliy baholash standartiga qo'shimchalar
kiritish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining "Baholash faoliyati to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-yanvardagi 23-son "O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq buyuraman:

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktorining 2023-yil 25-oktabrdagi 01/11-14/29-son buyrug'i (ro'yxat raqami 3487, 2023-yil 28-dekabr) (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.12.2023-y., 10/23/3487/0991-son) bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Yagona milliy baholash standartiga ilovaga muvofiq qo'shimchalar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq Baholovchi tashkilotlar assotsiatsiyasi hamda Baholovchilar, ekspertlar va maslahatchilar jamiyati bilan kelishilgan.

3. Ushbu buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Direktor
16-Mart 2026-yil
01/11-1 son



MURODOV SOHIBJON
G'OFURJONOVICH

Kelishildi:

Baholovchilar, ekspertlar va
maslahatchilar jamiyati raisi
11-Mart 2026-yil



NIGMANXANOV ZUXRIDDIN
ZAYNIDDINOVICH

Baholovchi tashkilotlar assotsiatsiyasi
raisi
06-Mart 2026-yil



ISLAMOV ADILJAN TAIROVICH

O'zbekiston Respublikasi Yagona milliy baholash standartiga kiritilayotgan qo'shimchalar

1. 5-band quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“16-son MBS “Madaniy boyliklar qiymatini baholash”.”.

2. 306-band quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“madaniy meros obyekti bo'lgan ko'chmas mulkni baholashda baholash obyektining tarixiy, madaniy yoki badiiy ahamiyatga ega ekanligi.”.

3. Quyidagi mazmundagi XV² bo'lim bilan to'ldirilsin:

“XV² bo'lim. Madaniy boyliklar qiymatini baholash (16-son MBS)

1-bob. Umumiy qoidalar

605⁶⁰. “Madaniy boyliklar qiymatini baholash” Milliy baholash standarti (bundan buyon matnda 16-son MBS deb yuritiladi) madaniy boyliklar qiymatini baholash jarayoniga qo'yiladigan asosiy talablarni, shuningdek ushbu jarayonning xususiyatlarini belgilaydi.

605⁶¹. Madaniy boyliklar qiymatini baholash 1–7-son MBS talablari asosida amalga oshiriladi. 16-son MBS madaniy boyliklar qiymatini baholashga doir qo'shimcha talablarni belgilaydi.

Madaniy boyliklarning qiymatini baholashda baholovchilar mazkur YMBSning 11-ilovasida keltirilgan “Madaniy boyliklar qiymatini baholash” Milliy baholash standarti (16-son MBS) metodikasidan foydalanishlari mumkin.

2-bob. Asosiy tushunchalar va ta'riflar

605⁶². Mazkur MBS maqsadlarida quyidagi tushuncha va ta'riflar qo'llaniladi:

madaniy boyliklar – moddiy dunyoning milliy, tarixiy, badiiy, ilmiy-ma'rifiy, ma'naviy-axloqiy va boshqa madaniy ahamiyatga ega bo'lgan ko'char boyliklar obyektlari, shu jumladan, muzey ashyolari, kolleksiyalar, arxeologik ashyolar va obyektlar;

atributsiya – madaniy boyliklar obyektining yaratilish joyi va vaqtini, shuningdek, ushbu obyektini yoki u tegishli bo'lgan maktabni yaratgan ustaning nomini aniqlash;

madaniy boyliklar ekspertizasi – madaniy boyliklarning sifatini o'rganish, haqiqiylikini (yoki aksini), shu jumladan, texnologik vosita va uslublarni qo'llagan holda baholash obyektining madaniy boyliklarga tegishlilik belgilarini, shuningdek, ularning saqlanish darajasini aniqlash maqsadida san'atshunos-ekspert yoki boshqa tegishli sohadagi ekspert tomonidan amalga oshiriladigan o'rganish;

texnologik ekspertiza – faoliyatning arxeologiya, gemmologiya, kimyo, numizmatika, qurol ishi va boshqa yo'nalishlar bo'yicha ekspertlar tomonidan amalga oshiriladigan madaniy boyliklar obyektining materiali, yaratilish vaqti va uni tayyorlash texnikasi tahlili;

baholash obyektining san'atshunoslik ekspertizasi (bundan buyon matnda san'atshunoslik ekspertizasi deb yuritiladi) – tasviriy va amaliy san'at yo'nalishidagi madaniy boyliklarni ularning haqiqiylik (yoki aksi), mualliflik, saqlanish darajasi, restavratsiya ishlari amalga oshirilganligi yoki amalga oshirilmaganligi, muayyan bir davrga tegishlilik, shuningdek, uning madaniy, tarixiy, ilmiy,

badiiy, arxeologik yoki boshqa ahamiyatga ega bo'lgan boylik ekanligini aniqlash san'atshunos-ekspert tomonidan olib boriladigan o'rganish;

san'atshunos-ekspert – san'atshunoslik ekspertizasini amalga oshirish uchun san'atshunoslik sohasi, jumladan tasviriy va amaliy san'at yo'nalishida oliy ma'lumot va san'atshunoslik sohasining muayyan yo'nalishi bo'yicha (tasviriy yoki amaliy san'at) kamida o'n yillik ish stajiga ega bo'lgan malakali mutaxassis;

san'atshunos-ekspert xulosasi (bundan buyon matnda xulosa deb yuritiladi) – san'atshunos-ekspert tomonidan tuziladigan, baholash (madaniy boyliklar) obyektining san'atshunoslik ekspertisasi natijasini aks ettiruvchi, shu jumladan ushbu obyektning haqiqiyliigi yoki haqiqiy emasligini tasdiqlovchi hujjat;

texnologik ekspertiza protokoli – ixtisoslik bo'yicha ekspert tomonidan tuziladigan, tadqiqot o'tkazishning texnik vositalari va o'tkazish uslublari ko'rsatilgan, baholash (madaniy boyliklar) obyektining texnologik ekspertisasi natijalarini o'z ichiga olgan hujjat;

ixtisoslik bo'yicha ekspert – madaniy boyliklar obyektlari bilan bog'liq bo'lgan muayyan soha bo'yicha bilimlarga ega bo'lgan mutaxassis (kimyogar, fizik, arxeolog, haykaltarosh, rassom, tarixchi, manbashunos, xattot va boshqalar);

provenans – madaniy boyliklar obyektiga egalik qilish tarixi;

antikvariat – savdo va to'plash obyekti bo'lgan qadimiy va noyob san'at asarlari yoki qimmatbaho buyumlar. Bunday buyumlarning asosiy belgilari eskiligi, noyobligi yoki o'ziga xosligi, kam miqdorda chiqarilganligi, tarixiy davr yoki tarixiy voqealar bilan bog'liqligi, takror ishlab chiqarishning imkoni yo'qligi, badiiy qiymatga egaligi va boshqalardan iborat.

605⁶³. Ushbu standart doirasiga kiruvchi baholash obyektlari qatoriga quyidagi madaniy boyliklar obyektlari va ular bilan bog'liq bo'lgan mulkiy huquqlar kiradi:

a) xalqlar hayotidagi tarixiy voqealar, jamiyat va davlat taraqqiyoti, fan va texnika tarixi, shuningdek, buyuk shaxslar (davlat, siyosiy, jamoat arboblari, mutafakkirlar, ilm-fan, adabiyot, san'at arboblari)ning hayoti va ijodi bilan bog'liq bo'lgan tarixiy qadriyatlar;

b) arxeologik qazilmalar natijasida olingan obyektlar va ularning bo'laklari;

d) badiiy boyliklar, shu jumladan:

har qanday asosda va har qanday materiallardan qo'lda ishlangan rasmlar va chizmalar;

har qanday materiallardan yasalgan haykaltaroshlik asarlari;

har qanday materiallardan tayyorlangan original badiiy kompozitsiyalar va montajlar;

bosma grafika asarlari, shu jumladan barcha turdagi gravyuralar, ularning ko'chirma nusxalari va original bosma shakllari, shuningdek fotosuratlar (bosmalar, negativlar va barcha turdagi boshqa materiallar);

barcha turdagi dekorativ-amaliy san'at asarlari, shu jumladan mebel, interyer va maishiy obyektlar, zargarlik va qurol-yarog' san'ati, an'anaviy xalq badiiy hunarmandchiligi, yog'och, metall, tosh, keramika, shisha, mato, suyak va boshqa materiallardan tayyorlangan buyumlar;

badiiy bezatilgan ibodat obyektlari;

arxitektura va monumental san'at yodgorliklarining badiiy ahamiyatga ega bo'lgan bo'laklari (qismlari);

kitoblar va boshqa bosma nashrlar, shu jumladan afishalar, reklama plakatlari, tarixiy va badiiy ahamiyatga ega bo'lgan hamda kolleksiya obyekti hisoblanuvchi boshqa bosma mahsulotlar, alohida va kolleksiyalarda;

nodir qo'lyozmalar va hujjatli yodgorliklar;

xattotlik asarlari va namunalari;

arxivlar, shu jumladan foto-, fono-, kino- va videoarxivlar;

noyob va kamyob musiqa asboblari;

pochta markalari, boshqa filateliya materiallari, alohida yoki kolleksiyalarda;

qadimiy tangalar, ordenlar, medallar, muhrlar va boshqa kolleksiya obyektlari;

noyob kolleksiyalar, flora hamda fauna namunalari, mineralogiya, anatomiya va paleontologiya singari fan sohalarini qiziqtiruvchi obyektlar;

e) boshqa ko'char obyektlar, shu jumladan tarixiy, badiiy, ilmiy yoki boshqa madaniy ahamiyatga ega bo'lgan nusxalar, shuningdek, tarixiy va madaniy yodgorliklar sifatida davlat muhofazasiga olingan obyektlar.

605⁶⁴. Madaniy boyliklarga bo'lgan mulk huquqi hamda mulkiy huquqdagi ulushlar ham baholash obyekti bo'lishi mumkin.

3-bob. Baholashga oid vazifa, axborotni to'plash va tahlil qilish hamda farazlar

605⁶⁵. Baholashga oid vazifa va baholash uchun zarur bo'lgan axborotni to'plash 2-son MBS "Baholashga oid vazifa" va 3-son MBS "Baholash jarayonida o'tkaziladigan o'rganishlar va tahlillar" talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

605⁶⁶. Baholash vazifasini tuzishda baholovchi malakali san'atshunos-ekspertlar tomonidan tuzilgan xulosaning mavjudligi madaniy boyliklar qiymatini baholashning eng muhim sharti hisoblanishini nazarda tutishi lozim.

Bunda madaniy boyliklarni baholashda baholash obyekti quyidagi hollarda texnologik ekspertizadan o'tkazish natijalari mavjud bo'lishi kerak:

madaniy boyliklarni olib chiqish va olib kirish;

san'atshunos-ekspertlarda madaniy boyliklarning haqiqiy yoki haqiqiy emasligi bo'yicha shubha mavjud bo'lsa;

baholash davlat buyurtmachilari hisobidan amalga oshirilsa yoki moliyaviy, gumanitar, xayriya yordami va boshqa qaytarib berilmaydigan beg'araz mablag'lar hisobidan moliyalashtirilsa, agar moliyaviy, gumanitar, xayriya yordami va boshqa beg'araz (qaytarib berilmaydigan) moliyalashtirish shartlarida tovarlarni (ishlar, xizmatlar) sotib olishning boshqa tartibi belgilanmagan bo'lsa.

605⁶⁷. Madaniy boyliklar obyektlarini ekspertizadan o'tkazish natijalari mavjud bo'lmagan taqdirda, baholovchi buyurtmachiga ekspertiza o'tkazish zarurligi to'g'risida xabar berishi kerak. Aks holda, bu madaniy boyliklar bo'yicha baholash ishlari olib borilmaydi.

605⁶⁸. Madaniy boyliklar obyektlarini ekspertizadan o'tkazish bunday tadqiqotlarni o'tkazish imkonini beruvchi tegishli uskunalar va xodimlarga ega bo'lgan ixtisoslashtirilgan tashkilotlarda yoki malakali san'atshunos-ekspertlar tomonidan o'tkazilishi shart.

Madaniy boyliklar obyektlarini ekspertizadan o'tkazish uning mulkdori yoki vakili tomonidan amalga oshiriladi.

605⁶⁹. Baholash obyekti haqida ma'lumot to'plashda, agar baholash topshirig'ida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, baholovchi baholash sanasiga eng yaqin hujjatlarni o'rganadi.

605⁷⁰. Agar baholash obyekti bo'yicha malakali san'atshunos-ekspertlarning xulosalari va boshqa tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lsa, baholovchi baholash obyektining haqiqiylikni aniqlashning ishonchliligi, uning madaniy boyliklarga mansublik belgilari, saqlanish darajasi, yo'qotishlar miqdori, kelib chiqishi hamda provenansni aniqlash bilan bog'liq masalalar bo'yicha javobgar hisoblanmaydi.

605⁷¹. Baholashni amalga oshirish uchun buyurtmachi baholovchiga quyidagilarni taqdim etishi lozim:

baholash obyektiga mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlarning asl nusxalari yoki nusxalarini (agar mavjud bo'lsa);

san'atshunos-ekspert xulosasining nusxasi;

madaniy boyliklar obyektini texnologik ekspertizadan o'tkazish protokoli;

baholash obyekti bilan bog'liq hujjatlar yoki boshqa axborot materiallari (ko'rgazmalar kataloglari, san'atshunoslik sohasiga oid adabiyotlar, muzeylar yoki ko'rgazma galereyalarining veb-saytlari va boshqalar).

Zaruratga ko'ra, baholovchi baholash obyektiga mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalarini (shartnomalar, sovg'alar, vasiyatnomalar va boshqalar) talab qilishi mumkin.

605⁷². Madaniy boyliklar ekspertizasi natijalaridan qat'i nazar, baholashni amalga oshirishdan avval baholovchi baholash obyektini ko'zdan kechiradi. Ko'zdan kechirishni o'tkazish baholash obyekti to'g'risidagi hisobotda keltirilgan ma'lumotlarni muhokama qilish uchun zaruriy shart hisoblanadi.

605⁷³. Baholash obyektini ko'zdan kechirishning maqsadi baholash obyektining miqdoriy-sifat xususiyatlari va saqlanish holatini taqqoslash va ta'riflashdan iborat.

605⁷⁴. Qo'shimcha texnologik yoki san'atshunoslik tadqiqotlarini amalga oshirishda yoki qo'shimcha atributsiyalash ishlarini o'tkazishda, shuningdek saqlash holatini aniqlash hamda ta'mirlash-restavratsiya ishlari hajmini aniqlashda baholash tashkiloti mustaqil ravishda tegishli yo'nalish bo'yicha malakali san'atshunos-ekspertlarni va ixtisoslik bo'yicha ekspertlarni jalb qilishi mumkin.

Ekspertlar shartnoma asosida madaniy boyliklar obyektini texnologik ekspertizadan o'tkazish laboratoriyasi yoki baholovchi tashkilot tomonidan jalb qilinadi. Shartnomada ekspertiza shartlari, ekspertning javobgarligi, mehnat sharoitlari, to'lov, ekspert xulosasi taqdim etiladigan vaqt va mehnat munosabatlari bilan bog'liq boshqa masalalar ko'rsatiladi.

605⁷⁵. Baholovchi tomonidan qo'llanadigan baholash uslublari bozorning holati va dinamikasi to'g'risidagi, shuningdek baholash obyekti bilan amalga oshirilgan bitimlar (sanasi, auksion narxlari (estimeyt), narx omillari, ma'lumot manbai va boshqalar) to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanishni talab qiladigan hollarda, baholovchi baholash obyekti tegishli bo'lgan bozor segmenti haqida umumiy ma'lumotlarni to'plashi shart.

605⁷⁶. Madaniy boyliklar obyektini baholash vazifasida 2-son MBS "Baholashga oid vazifa"da ko'rsatilgan ma'lumotlarga qo'shimcha tarzda quyidagi ma'lumotlar bo'lishi shart:

baholash obyektining ta'rifi (uni identifikatsiyalashga imkon beruvchi), baholash obyektining madaniy boyliklarga mansubligi, asar muallifi belgilari ko'rsatilgan holda;

saqlanish darajasi, obyektiv xususiyatlari (vazni, o'lchami, tayyorlash materiallari va texnikasi), yaratilish (ishlab chiqarish) joyi va vaqti;

baholash obyektida mavjud bo'lgan nuqsonlar, yoriqlar, darz ketishlar va sinishlar hamda boshqa shikastlanishlar (agar mavjud bo'lsa);

qayta tiklash-ta'mirlash (restavratsiya) ishlarining zarurligi, shuningdek, provenans yoki baholovchi olishi mumkin bo'lgan shunday xususiyatlarni o'z ichiga olgan hujjatlar yoki hujjatlarga havolalar.

4-bob. Baholash yondashuvlari va usullarini tanlash, asoslash va qo'llash

605⁷⁷. Madaniy boyliklarni baholash yondashuvlari 6-son MBS "Baholash yondashuvlari va usullari" qoidalarini hisobga olgan holda qo'llaniladi.

605⁷⁸. Agar baholash obyektini mulkiy mualliflik huquqiga ega bo'lsa, u madaniy mulkni baholash hisobotida to'liq aks ettirilishi kerak. Bir vaqtning o'zida mualliflik (yoki sheriklik) huquqi obyektini bo'lgan madaniy boylik obyektiga egalik huquqi 11-son MBS "Nomoddiy aktivlar va intellektual mulk obyektlari qiymatini baholash"ga amal qilgan holda intellektual mulk huquqlariga muvofiq baholanishi kerak.

1-§ Qiyosiy yondashuv

605⁷⁹. Qiyosiy yondashuv analog-obyektlarning (o'xshash obyektlarning) bozor qiymatlari to'g'risidagi axborotga va ularning qiymatini qiyoslash elementlari bo'yicha tuzatishga asoslangan hisoblash usullari yig'indisidan iborat.

Analog-obyektlarning bozor qiymatlari deganda analog madaniy boyliklar bo'yicha bitimlar va takliflar narxlarini tushuniladi.

605⁸⁰. Qiyoslash elementlariga baholash obyektining qiymatiga ta'sir qiluvchi omillar va madaniy boyliklar obyektlari bilan bog'liq bitimlarning xususiyatlari kiradi.

605⁸¹. Qiyosiy yondashuv yordamida madaniy boyliklar qiymatini baholashda quyidagi usullardan foydalaniladi:

to'g'ridan-to'g'ri sotishni taqqoslash usuli;

reyting usuli.

605⁸². Qiyosiy yondashuvda sotuvlarni to'g'ridan-to'g'ri qiyoslash usuli aynan bir xil yoki analog-obyektlar narxiga ularning baholash obyektidan farqlanishiga qarab, tegishli tuzatishlar (qiymat va (yoki) foiz) kiritish orqali qo'llaniladi.

605⁸³. Qiyoslashning har bir elementi bo'yicha tuzatish kiritish ushbu elementning obyekt qiymatiga qo'shgan hissasi prinsipiga asoslanadi va analog-obyektdan baholash obyektiga tomon amalga oshiriladi.

605⁸⁴. Qiyoslanadigan obyektlarning narxlarini tuzatish pul birliklarida yoki foizda amalga oshirilishi mumkin. Agar analog-obyektlar narxiga tuzatishlar pul birliklarida ifodalangan bo'lsa, ularni kiritish har qanday ketma-ketlikda amalga oshirilishi mumkin. Agar tuzatishlar foiz sifatida ifodalangan bo'lsa, unda birinchi tuzatish analog-obyektini sotish narxiga ko'paytiriladi, keyingi tuzatishlar ketma-ket zanjirli harakatlar shaklida amalga oshiriladi.

605⁸⁵. Baholash maqsadida madaniy boyliklarning analog-obyektini - bu uning qiymatini belgilaydigan asosiy xususiyatlariga ko'ra, baholash obyektiga maksimal darajada o'xshash obyekt hisoblanadi. Madaniy boyliklar sohasidagi analog-obyektlarning o'xshashligini aniqlashda baholovchi ekspertiza natijalariga asoslanishi kerak.

605⁸⁶. Analog-obyektlarni tanlashda quyidagi omillar hisobga olinishi kerak:

analog-obyektlarning asosiy miqdoriy va sifat (tavsif) xususiyatlariga ko'ra baholash obyekti bilan o'xshashligi;

tanlangan analog-obyektlar soni, ular bilan baholash obyektni qiyoslash imkoniyati mavjudligi hamda ularning miqdoriy va sifat xususiyatlari;

baholash obyekti muallifining mualliflik asarlari (agar muallif ommaga ma'lum bo'lsa).

Muallifning mashhurligi bo'yicha quyidagilar tushuniladi:

muallifda faxriy yoki boshqa unvonlar mavjudligi;

muallifning ko'rgazmalar tarixi (qachon, qayerda va qaysi ko'rgazmalarda ishlari namoyish etilgan);

muallif ishlarining joylashgan manzili (muzeylar, galereyalar, ijodiy salonlar, xususiy kolleksiyalar, shu jumladan xorijda);

keng ommaga muallif ishlarining tanishish imkonini beradigan boshqa omillar.

605⁸⁷. Boshqa muallifning obyekti, agar u baholash obyekti muallifiga yaqin maqomga ega bo'lsa, shu jumladan mashhurligi, asarlarining badiiy ahamiyati, reytingi va boshqa xususiyatlari bilan o'xshash bo'lsa, analog-obyekt sifatida bo'lishi mumkin.

605⁸⁸. Bozorda mavjud bo'lgan dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, madaniy boylik obyektlarini baholash jarayonida miqdoriy (miqdoriy qiyoslash usuli, juftlashtirilgan sotish usuli va boshqalar) va sifat usullaridan (ekspert baholash usuli va boshqalar), shuningdek ularning kombinatsiyalaridan foydalanish mumkin.

2-§ Daromad yondashuvi

605⁸⁹. Daromad yondashuvi kelajakdagi pul oqimini joriy qiymatga aylantirish orqali qiymat o'lchovini ta'minlaydi. Daromad yondashuvini qo'llashda madaniy boyliklarning qiymati baholash obyekti tomonidan ishlab chiqarilgan daromad pul oqimi yoki xarajatlarni tejash qiymatiga qarab belgilanadi.

605⁹⁰. Daromad yondashuvi madaniy boyliklar qiymatini baholashning yagona yondashuvi sifatida quyidagi holatlarda qo'llanishi lozim:

a) madaniy boyliklar obyektining daromad olish qobiliyati, bozor ishtirokchisi nuqtayi nazaridan, uning qiymatiga ta'sir qiluvchi eng muhim omil hisoblansa;

b) ko'rib chiqilayotgan madaniy boyliklarga nisbatan kelajakdagi daromad miqdori va muddatlari to'g'risida oqilona uzoq muddatli prognoz qilish mumkin bo'lsa hamda bozorda faqat kam miqdorda analog-obyektlar mavjud bo'lsa.

605⁹¹. Mazkur Standartning 605⁹⁰-bandida keltirilgan mezonlarga rioya qilinmasa, quyidagi holatlarda daromad yondashuvi natijasida olingan qiymat ko'rsatkichini qo'llab-quvvatlash uchun boshqa yondashuvlarni ham qo'llash imkoniyati ko'rib chiqilishi kerak:

a) baholanayotgan madaniy boyliklar obyektining daromad keltirish qobiliyati uning qiymatiga ta'sir qiluvchi omillardan biri bo'lsa;

b) baholanayotgan madaniy boylik obyektiga bog'liq bo'lgan kelajakdagi daromadlar miqdori va muddati to'g'risida sezilarli noaniqlik mavjud bo'lsa;

d) baholanayotgan madaniy boylik obyekti haqidagi ma'lumotlarni olish imkoni bo'lmaganda;

e) baholanayotgan madaniy boylik obyektini hali daromad keltira boshlamagan, ammo ma'lumotlarga ko'ra, bu yaqin kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lsa.

Shuningdek, baholash jarayonida olingan natijalarni muvofiqlashtirishda daromad yondashuvi natijasi katta ahamiyatga ega bo'ladi.

3-§ Xarajat yondashuvi

605⁹². Xarajat yondashuvi qiymat ko'rsatkichini olishga imkon beradi, bunda xaridor madaniy boylik obyektini uchun obyektning teng foydalilik, vaqt, noqulayliklar, tavakkalchilik yoki boshqa murakkablashtiruvchi omillar mavjud emasligida xarid qilish uchun sarflanadigan miqdordan ko'proq pul to'lamaydi degan iqtisodiy prinsipdan foydalaniladi.

605⁹³. Xarajat yondashuvi madaniy boyliklar obyektini almashtirish yoki ko'paytirish bo'yicha joriy xarajatlarni hisoblash va vaqt o'tishi bilan madaniy boyliklar uchun tegishli eskirish turlari va narxlarning oshishi uchun tuzatishlar kiritish orqali qiymat ko'rsatkichini olish imkonini beradi.

605⁹⁴. Xarajat yondashuvi quyidagi holatlar mavjud bo'lganda madaniy boyliklarning qiymatini baholashning yagona yondashuvi sifatida qo'llanilishi mumkin:

a) ishtirokchilar baholash obyektini bilan deyarli bir xil foydalilik xususiyatiga ega bo'lgan madaniy boyliklar obyektini hech qanday me'yoriy yoki huquqiy cheklolarsiz qayta yaratishga qodir bo'lsa va bu madaniy boyliklar obyektini shu qadar tez yaratilishi mumkinki, ishtirokchi baholanayotgan madaniy boyliklar obyektidan darhol foydalanish imkoniyati uchun katta mukofot to'lashni xohlamasa;

b) baholanayotgan madaniy boylik obyektini to'g'ridan-to'g'ri daromad keltirmasa va uning o'ziga xos xususiyati daromad va (yoki) qiyosiy yondashuvlardan foydalanishga imkon bermasa;

d) amaldagi qiymat turi asosan qayta ishlash yoki almashtirish xarajatlariga asoslansa.

605⁹⁵. Mazkur Standartning 605⁹⁴-bandida keltirilgan mezonlarga rioya qilinmasa, quyidagi holatlarda ham xarajatlar yondashuvi natijasida olingan xarajatlar ko'rsatkichini qo'llab-quvvatlash uchun boshqa yondashuvlarni ham qo'llash imkoniyati ko'rib chiqilishi kerak:

a) ishtirokchilar madaniy boyliklar obyektini analog-obyektini qayta tiklash imkoniyatini ko'rib chiqishlari mumkin, ammo madaniy boylikning bir xil obyektini yaratish bilan bog'liq cheklolalar mavjud bo'lsa yoki ko'p vaqt talab qilsa;

b) madaniy boyliklar obyektini yaqin vaqt ichida yaratilgan va xarajatlar yondashuvida ishlatiladigan taxminlar yuqori darajadagi ishonchlilikka ega bo'lsa.

4-§ Baholash natijalarini muvofiqlashtirish

605⁹⁶. Turli xil yondashuvlar va baholash usullaridan foydalangan holda olingan madaniy boyliklarning qiymatini baholash natijalarini muvofiqlashtirish va uni baholash hisobotida aks ettirish 4-son MBS "Baholash to'g'risidagi hisobot va uni tuzish tartibi" va 6-son MBS "Baholash yondashuvlari va usullari" talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

5-bob. Madaniy boyliklarni baholash bo'yicha maxsus qoidalar

605⁹⁷. Madaniy boyliklarni boshqa usullar yordamida ham baholash mumkin.

Madaniy boyliklarni baholashda baholovchi baholanayotgan madaniy boyliklarning xususiyatlarini hisobga olishi va ma'lumotlarning mavjudligi va bozor konyunkturasidan kelib chiqqan holda baholash usullarini tanlashi kerak.

Bunday holda, baholash hisobotida baholovchi tomonidan tanlangan usul (usullar) tavsifi ko'rsatilishi kerak, bu baholash hisobotidan foydalanuvchiga qiymatni aniqlash jarayonining mantiqiyligi va tanlangan usul(lar)ning muvofiqligini tushunishga imkon beradi.

Baholash to'g'risidagi hisobot har xil talqin qilinishiga yo'l qo'ymasligi va tushunmovchiliklar keltirib chiqarmasligi kerak.

605⁹⁸. Hisoblash usulini tanlashda baholovchi muhimlik, asoslilik, noaniqlik, tekshiriluvchanlik va yetarlilik tamoyillariga tayanishi kerak. Bunday holda, baholash to'g'risidagi hisobotda baholovchi tanlangan usul(lar)ning asoslanishi va tavsifini, madaniy qadriyatlar (tasviriy yoki amaliy san'at) yo'nalishidan kelib chiqqan holda narxlash mezonlarini ko'rsatishi kerak.

605⁹⁹. Madaniy boyliklarning qiymati uni yaratish uchun moliyalashtirish usuliga bog'liq emas.

605¹⁰⁰. Madaniy boyliklarni baholash bo'yicha ishlarni bajarishda baholovchi quyidagilarga majburdir:

baholangan madaniy boylik obyektida mualliflik huquqi va turdosh huquqlar bilan bog'liq majburiyatlar mavjudligini aniqlash;

mavjud manbalardan baholash obyektida qonuniy cheklovlar mavjudligi to'g'risida ma'lumot olish.

605¹⁰¹. Baholanayotgan madaniy boyliklarga nisbatan uchinchi shaxslarning hujjatlashtirilgan mulkiy huquqlari yoki cheklovlar bo'lmagan taqdirda, obyektни baholash, agar baholash topshirig'ida boshqacha tartib ko'rsatilmagan bo'lsa, tekshirish paytida aniqlangan holatlarni hisobga olgan holda bunday huquq va cheklovlar yo'qligi haqidagi taxmin asosida amalga oshiriladi.

605¹⁰². Baholovchi baholash usulini tanlashda baholanayotgan madaniy boylikning xususiyatlarini hisobga olgan holda, muhimlik, ishonchlilik, to'g'rilik, tekshiriluvchanlik va muvofiqlik tamoyillariga asoslanishi kerak.

605¹⁰³. Moliyaviy hisobotlar uchun belgilangan tartibda aniqlangan madaniy boylik obyektlarining qiymati mazkur Standartda aniqlangan qiymatidan sezilarli darajada farq qilishi mumkin.”.

4. Mazkur qo'shimchalarning ilovasiga muvofiq tahrirdagi 11-ilova bilan to'ldirilsin.

O'zbekiston Respublikasi Yagona milliy baholash standartiga
kiritilayotgan qo'shimchalarga ILOVA
"O'zbekiston Respublikasining Yagona milliy baholash
standartiga 11-ILOVA

**"Madaniy boyliklar qiymatini baholash" Milliy baholash standarti (16-son MBS)
METODIKASI**

Mazkur Metodika 16-son MBS "Madaniy boyliklar qiymatini baholash"ni qo'llash tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Metodika YAMBSga muvofiq madaniy boyliklar obyektlari (bundan buyon matnda MBO deb yuritiladi) qiymatini baholash uchun zarur bo'lgan minimal uslublarni belgilaydi. Baholovchilar O'zbekiston Respublikasining baholash faoliyati to'g'risidagi qonunchilikka, YAMBSga hamda baholashning xalqaro tajribasiga zid bo'lmagan boshqa uslublardan ham foydalanishlari mumkin. Bunda baholovchi baholash to'g'risidagi hisobotda tanlangan baholash usulini ko'rsatishi va asoslashi kerak.

2-bob. MBO ni identifikatsiya qilish

2. Baholanayotgan MBO ni identifikatsiya qilish uning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari va parametrlarini aniqlash, shuningdek, baholanayotgan MBO ning qiymatini aniqlash imkonini beruvchi tegishli parametrlar va tavsiflarga analog-obyektlarning narxni shakllantiruvchi parametrlari mosligini qiyoslash asosida amalga oshiriladi.

3. Identifikatsiya jarayonida MBO ning ekspertizasi o'tkaziladi. Ekspertiza MBO ni baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi, bu esa baholash obyektining madaniy (badiiy) qiymatini aniqlash va ularni analog-obyektga identifikatsiyalash imkonini beradi.

Baholanayotgan MBO ni ekspertizadan o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad uning haqiqiy yoki haqiqiy emasligini tasdiqlashdan iborat.

Madaniy (badiiy) qiymatni aniqlash vazifasi ahamiyatli belgilarning eng katta va eng aniq miqdorini aniqlashdan iboratdir.

4. Baholanayotgan madaniy boyliklar obyektining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq ravishda baholovchi quyidagi masalalarga alohida e'tibor berishi lozim:

MBO ni baholash uchun boshlang'ich ma'lumotlar;

san'atshunos-ekspert xulosasining mavjudligi;

MBO ning texnologik ekspertizasi protokoli mavjudligi (ixtisoslik bo'yicha ekspertlar xulosalari protokolda aks ettiriladi);

MBO atributsiyasining mavjudligi (agar mavjud bo'lsa);

MBO provenansi mavjudligi (agar mavjud bo'lsa);

MBO ga nisbatan cheklovlar mavjudligi yoki mavjud emasligi;

MBO ning saqlanish darajasi va restavratsiya qilish zarurati;

MBO bilan bog'liq qo'shimcha ma'lumotlarning mavjudligi (ko'rgazmalar kataloglari, adabiyotlar va boshqalar);

baholash uchun taqdim etilgan MBO analoglari haqida ma'lumot.

5. MBO ni baholash uchun boshlang'ich ma'lumotlar quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

MBO ning nomi;

MBO ning fotosurati;

MBO muallifining imzosi yoki shaxsiy tamg'asining mavjudligi;

yaratilgan sanasi;

MBOning mansubligi (tasviriy yoki amaliy san'at);

san'atshunos-ekspert xulosasi;

MBOning savdo tarixi (sotuvlar tarixi) (agar mavjud bo'lsa).

6. MBO bo'yicha san'atshunos-ekspertning xulosasida MBOning muallifi, yaratilgan sanasi, badiiy, ilmiy va tarixiy-madaniy qiymati, muayyan maktabga aloqadorligi, ijro uslubi, kompozitsion yechimi, ko'rgazma tarixi va boshqalar aks ettiriladi.

7. MBO ekspertizaga jalb etiladigan san'atshunos-ekspert baholash obyektining tegishli soha yo'nalishi (tasviriy yoki dekorativ-amaliy san'at) bo'yicha malakaga ega bo'lishi kerak.

Xulosada san'atshunos-ekspert o'zi haqidagi to'liq ma'lumotlarni (famiyasi, ismi, otasining ismi, ilmiy unvoni va darajasi (agar mavjud bo'lsa), ish joyi (lavozimi) (agar mavjud bo'lsa) hamda o'zaro aloqa ma'lumotlarini) ko'rsatishi lozim.

Xulosa san'atshunos-ekspertning o'zi tomonidan imzolanadi. Shuningdek, xulosa san'atshunos-ekspertning shtatida bo'lgan tashkilotning yoki u bilan fuqarolik-huquqiy shartnoma tuzgan tashkilotning muhri bilan tasdiqlanishi mumkin.

8. MBOni texnologik ekspertizadan o'tkazish to'g'risidagi bayonnomada tadqiqot turlari, tadqiqotlar o'tkazilgan uskunalar ro'yxati, o'lchov vositalarining amaldagi metrologik sertifikati, soha eksperti haqidagi ma'lumotlar (famiyasi, ismi, otasining ismi, ilmiy unvoni va darajasi, ish joyi (lavozimi) va texnologik ekspertizani o'tkazgan tashkilot) ko'rsatilishi kerak.

9. MBO atributsiyasi uning yaratilgan joyi va vaqti, shuningdek, ushbu obyektни yaratgan usta yoki u tegishli bo'lgan maktabni o'z ichiga oladi. Shuningdek, ekspertizada MBO atributsiyasi bo'yicha badiiy asarning ishonchligi, haqiqiyliги, uning muallifi, yaratilgan joyi va vaqti aniqlanadi. Bunda ekspertiza muayyan san'at turi bo'yicha ekspert tomonidan amalga oshiriladi. Ekspertning atributsiyadagi asosiy faoliyati obyektning muallifligi, xronologik mansubligi, autentligini tasdiqlash uchun obyekt tipologiyasining hujjatli va informatsion ta'minotini aniqlashga yo'naltiriladi.

10. MBO provenansi – bu MBOning oldingi egalari haqida hujjatli ma'lumotlarning mavjudligidir. Provenansni o'rganishda baholovchi oxirgi mulkdordan uning baholash obyektiga egalik huquqining qonuniyligi haqida yozma ma'lumotlarni olishi, shuningdek, agar MBO O'zbekiston Respublikasining "Madaniy boyliklarni olib chiqish va olib kirish to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi tomonidan 1996-yil 21-mayda ratifikatsiya qilingan Qurolli mojaro chiqqan hollarda madaniy boyliklarning himoya qilinishi to'g'risidagi Konvensiyani buzgan holda olingan bo'lsa, MBO egasini javobgarlikka tortilishi mumkinligi to'g'risida ogohlantirishi shart.

11. MBOga nisbatan cheklovlar mavjudligini tekshirishda baholovchi buyurtmachidan baholash obyektiga mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlarning asli yoki nusxalarini va baholanayotgan MBO bo'yicha cheklovlar yo'qligini tasdiqlovchi hujjatlarni (agar mavjud bo'lsa) olishi lozim.

12. Zaruratga ko'ra, baholovchi tegishli tashkilotlardan baholash obyektiga mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlarning (shartnomalar, xayr-ehsonlar, vasiyatnomalar va boshqalar) nusxalarini talab qilishga haqli.

13. MBO ekspertiza natijalaridan qat'i nazar, baholashni amalga oshirishdan oldin baholovchi baholash obyektini tekshiruvdan o'tkazadi. Vizual tekshiruvga quyidagilar kiradi:

nuqsonlar, darz ketishlar, bo'linishlar, sinishlar va boshqa shikastlanishlarning mavjudligi;

saqlanish darajasi va restavratsiya qilish zarurati.

14. MBOning saqlanish darajasi bevosita baholash narxiga ta'sir qiladi. MBOni vizual tekshirish vaqtida nuqsonlar, mog'or bosish va deformatsiya izlari yoki boshqa kamchiliklar aniqlangan taqdirda, baholovchi baholash obyektini restavratsiya qilish darajasini aniqlash uchun tegishli ekspertni jalb qilishi lozim.

15. Tekshiruv davomida MBOning qaysi turga tegishliligi va tipologik belgilari, muallifi, mavzusi, syujeti, vaqti, yaratilish joyi va mavjudligi, ilmiy ahamiyati, memorialligi, ijtimoiy va etnik mansubligi, tayyorlash materiali va usuli, o'lchami, rangi, shakli, tuzilishi, yo'qotishlar ro'yxati va boshqa sifatlar yoki baholash uchun zarur bo'lgan alohida belgilar qayd etiladi.

16. Tekshiruvni ixtisoslik bo'yicha ekspert jalb qilgan holda o'tkazish obyektini baholash to'g'risidagi hisobotda ko'rsatilgan ma'lumotlarni isbotlash uchun zarur shart hisoblanadi.

17. MBO bilan bog'liq hujjatlar yoki boshqa axborot materiallarining (ko'rgazmalar kataloglari, san'atshunoslik sohasidagi adabiyotlar, muzeylar yoki ko'rgazma galereyalarining veb-saytlari va boshqalar) mavjudligi MBOning yakuniy bahosiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, respublika miqyosidagi yoki xalqaro ko'rgazmalarda MBOning ko'rgazmalar tarixi mavjudligi baholash obyektini qiymatini bir necha barobar oshirishi mumkin.

3-bob. Axborotni to'plash va tahlil qilish

18. Axborotni to'plash, o'rganish va tahlil qilishda, shuningdek, baholash obyektini identifikatsiya qilishda baholovchi 3-son MBS "Baholash jarayonida o'tkaziladigan o'rganishlar va tahlillar" talablariga amal qilishi kerak.

19. Baholash obyektini tahlil qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarning turi va miqdori baholovchi tomonidan baholashdan ko'zda tutilgan maqsad, aniqlanadigan qiymat turi, baholash obyektining o'ziga xos xususiyatlari, ruxsatlar va cheklovchi shartlarga qarab belgilanadi.

20. MBOni baholash ishlari sifatli bo'lishini ta'minlashning asosiy sharti baholash uchun taqdim etilgan MBO analoglari borasidagi ma'lumotlarni to'g'ri va malakali tanlashdan iboratdir. Analoglarni tanlashda baholovchi muallif asarlarining mahalliy bozorini ham, xorijiy bozorini ham, shu jumladan auksion savdolarini (agar mavjud bo'lsa) ham o'rganishi kerak. MBOning muallifi bo'lmagan holatlarda, baholanayotgan MBO bilan eng ko'p o'xshash tavsiflarga ega bo'lgan obyekt analog-obyekt sifatida olinadi.

21. Baholash obyekt bozorining tahlili quyidagi izchillikda amalga oshiriladi:

analog-obyektlar bozorining tahlili;

baholash obyekt bozoriga tegishli sektorning joriy holati, rivojlanish istiqbollari va rivojlanish tendensiyalari tahlili;

baholash obyekt bilan yoki analog-obyektlar bilan tuzilgan bitimlar tahlili (agar mavjud bo'lsa);

baholash obyekt bilan qiyoslanayotgan analoglarga bo'lgan talab, taklif va narxga ta'sir qiluvchi asosiy omillar tahlili.

Madaniy boyliklar bozorining kelajak tendensiyalarini prognoz qilishda MeiMoses All Art Index, Artprice Global Index, ArtNet, Zurich Art and Antiques Index, Skate's Art Stocks Index (SASI), ARTIMX singari mashhur indekslar, shuningdek, Christie's, Sotheby's, Heritage Auctions, Phillips de Pury & Company, Bonhams va boshqa nufuzli auksion uylari va san'at asarlari bozorini tahlili qilishga ixtisoslashgan tahliliy kompaniyalar ma'lumotlaridan foydalanish mumkin.

22. Baholovchi tomonidan qo'llanilayotgan baholash uslublari bozorining holati va dinamikasi, shuningdek baholash obyekt bilan tuzilgan bitimlar (sanasi, auksion narxlari (estimeyt), narx omillari, ma'lumot manbai va boshqa) to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanishni talab qiladigan holatlarda,

baholovchi baholash obyekti tegishli bo'lgan bozor segmenti haqida umumiy ma'lumotlarni to'plashi lozim.

23. Quyidagilar MBO ni baholashning maqsadlari bo'lishi mumkin:

oldi-sotdi;

deklaratsiyalash;

ustav kapitali (jamg'armasi)ga kiritish;

sug'urtalash (sug'urta xatarlarining barcha holatlari);

olib chiqiladigan va olib kiriladigan madaniy boyliklarga qo'yiladigan bojxona boji qiymatini belgilash;

vakolatli davlat organi tomonidan MBO ni olib chiqish va vaqtincha olib chiqish uchun beriladigan sertifikatni olish;

hibsga olingan yoki musodara qilingan MBO ning bozor qiymatini aniqlash;

garovga qo'yish;

boshqa davlatlardan noqonuniy tarzda olib chiqilgan, o'g'irlangan yoki boshqa davlatlarda yo'qotilgan MBO qonuniy egasiga qaytarilganida, uni halol xarid qilgan inson uchun beriladigan kompensatsiya miqdorini aniqlash.

Bunda baholovchi baholashda qiymat turini tanlash bevosita baholash maqsadiga bog'liqligini e'tiborga olishi kerak.

24. MBO qiymatining turi baholash maqsadi va uning natijalaridan foydalanish bilan bog'liq ravishda 5-son MBS "Qiymat turlari"ga muvofiq tarzda belgilanadi.

4-bob. Baholash yondashuvlari va uslublarini tanlash, asoslash va qo'llash

25. MBO ni baholash qiyosiy, daromad va xarajatlarga asoslangan yondashuvlardan foydalangan holda amalga oshiriladi. Baholash to'g'risidagi hisobotda baholovchi u yoki bu yondashuvni qo'llashning maqsadga muvofiqligini asoslab berishi kerak. Baholovchi baholash uchun tanlangan yondashuv (yondashuvlar) doirasida baholash obyekti qiymatini hisoblashning muayyan uslublarini mustaqil ravishda belgilash huquqiga ega.

26. MBO ni baholash quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga olishi lozim:

baholashning maqsadi va vazifasini aniqlash, baholash topshirig'ini tayyorlash, MBO qiymatini baholash bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlarga oid shartnoma tuzish;

baholash obyekti identifikatsiya qilish, ya'ni baholash obyekti, uning tarixi, miqdoriy va sifat tavsiflari va parametrlarini aniq ta'riflash;

baholash obyekti muallifining ijodiy tarixini ta'riflash (agar mavjud bo'lsa);

san'atshunoslik va (yoki) texnologik ekspertiza natijalarini ta'riflash;

madaniy boyliklar muomalada bo'lgan bozorni tahlil qilish, baholanayotgan MBO ning bozor segmenti to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va tizimlashtirish;

narxlarni shakllantiruvchi omillarni va ularning narxga ta'sirini aniqlash;

baholashga oid yondashuv (yondashuvlar)ni va baholanayotgan MBO qiymatini hisoblash uslubini (uslublarini) tanlash va asoslash;

baholanayotgan MBOning qiymatini aniqlash bo'yicha baholash yondashuvlarini qo'llash va hisoblash-tahliliy protseduralarni bajarish;

olingan natijalarni umumlashtirish va baholash obyektining yakuniy qiymatini aniqlash;

MBOni baholash bo'yicha hisobot tayyorlash.

27. MBO qiymatini baholash ishlarini bajarishda baholovchi quyidagilarni amalga oshiradi:

baholanayotgan MBO mualliflik va turdosh huquqlar bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlar mavjudligini aniqlash;

mavjud axborot manbalaridan baholash obyektiga nisbatan qonuniy cheklovlar to'g'risida ma'lumot olish.

28. MBOning qiymati uni yaratishdagi moliyalashtirish usuliga bog'liq bo'lmaydi.

29. Baholanayotgan MBOga nisbatan uchinchi shaxslarning hujjatlar bilan tasdiqlangan mulkiy huquqlari va cheklovlar mavjud bo'lmagan taqdirda, obyektни baholash, agar baholash topshirig'ida boshqacha ko'rsatilmagan bo'lsa, tekshirish paytida aniqlangan holatlarni hisobga olgan holda bunday huquq va cheklovlar mavjud emas degan taxmin asosida amalga oshiriladi.

30. Hisoblash uslubini tanlashda baholovchi baholanayotgan MBOlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda muhimlik, asoslilik, aniqlik va yetarlilik tamoyillariga asoslanishi kerak. Baholash hisobotida baholovchi MBO yo'nalishidan (tasviriy yoki amaliy san'at) kelib chiqqan holda tanlangan uslub (uslublar)ning asoslanishi va ta'rifini, shuningdek, narx shakllanishi mezonlarini ko'rsatib o'tishi lozim.

Baholash hisobotini tayyorlashda muhimlik prinsipidan foydalangan holda ishni amalga oshirish davomida aniqlangan barcha muhim holatlarning bayon etilishi baholovchi tomonidan boshqa hech qanday muhim holatlar aniqlanmaganini anglatadi.

Asoslanganlik prinsipi qo'llanayotgan uslublar va alohida hisob-kitoblar asosli ekanligi va mantiqiy tushuntirishga egaligi, hisoblashda foydalanilgan boshlang'ich ma'lumotlar va taxminlar bir-biriga va bozor sharoitlariga mos kelishini ko'zda tutadi.

Aniqlik prinsipi baholash hisobotining mazmuni ushbu hisobotdan foydalanuvchilarni chalg'itmasligi, shuningdek, turli talqin qilish mumkin emasligini anglatadi.

Yetarlilik prinsipiga ko'ra, MBOni baholash hisobotini tayyorlash jarayonida har qanday fikr-mulohaza faqat uning ishonchliligiga yetarli asoslar keltirilgan, ya'ni foydalanilgan axborot manbalariga havolalar va hujjatlarning nusxalari bo'lsagina, to'g'ri deb hisoblanadi.

1-§ Qiyosiy yondashuv

31. Qiyosiy yondashuv analog-obyektlarning narxlari va tavsiflari to'g'risida ishonchli va foydalanish mumkin bo'lgan ma'lumotlar mavjud bo'lgan hollarda qo'llanadi. Baholash obyektini bir xil yoki analog MBOlar bilan taqqoslash uchun tegishli ma'lumotlarning mavjudligi qiyosiy yondashuvni qo'llash sharti hisoblanadi. Bunday analog-obyektlar baholanayotgan MBO bilan bir bozorda yoki baholanayotgan MBO bilan bir xil bozorda sotilishi kerak. Bunda amalga oshirilgan kelishuvlar narxi ham, takliflar narxi ham qo'llanishi mumkin.

32. Baholash maqsadlari uchun o'zining qiymatini belgilovchi asosiy tavsiflari bo'yicha baholash obyektiga maksimal o'xshash bo'lgan obyekt analog-obyekt sifatida tan olinadi. Madaniy boyliklar sohasidagi analoglarning o'xshashligini aniqlashda baholovchi san'atshunoslik va (yoki) texnologik ekspertiza natijalariga asoslanishi lozim.

33. Quyidagilar analog-obyektlarni tanlashda hisobga olinadigan omillar hisoblanadi:

analog-obyektlarning baholanayotgan MBO bilan asosiy miqdoriy va sifat tavsiflari bo'yicha o'xshashligi;

tanlanayotgan analog-obyektlarning soni, ularning miqdoriy va sifat xususiyatlarini tekshirish imkoniyati mavjudligi;

mualliflik (agar mavjud bo'lsa).

34. Qiyosiy yondashuvdan foydalangan holda baholash obyektining qiymatini aniqlash analog-obyektlarning narxlarini tuzatish orqali amalga oshiriladi, bu ularning baholanayotgan obyektidan farqini bartaraf qilish imkonini beradi.

35. Qiyosiy yondashuv tegishli qiyoslash elementlari asosida tanlangan analog-obyektlarning narxlaridan foydalangan holda qo'llaniladi. Qiyoslash elementlari qatoriga baholash obyektining qiymatiga va madaniy boyliklarga taalluqli bo'lgan obyektlar bilan tuziladigan bitimlarning xususiyatlariga ta'sir qiladigan omillar kiradi.

36. Sotuvlarni to'g'ridan-to'g'ri qiyoslash uslubi bozori chaqqon, ko'plab takliflar va bitimlarga boy bo'lgan seriyali va ommaviy MBOnlar uchun qo'llaniladi. Analog-obyektlar bilan tuzilgan muayyan bitimga bog'liq holda MBO ni xarid qilish va sotish bo'yicha bitimlar tuziladigan bozorlarning quyidagi turlari ajratib ko'rsatiladi:

auksion;

galereya;

yarmarka (art-yarmarka, badiiy yarmarka, san'at yarmarkasi va boshqa);

kolleksiyachi yoki merosxo'r tomonidan amalga oshiriladigan to'g'ridan-to'g'ri sotuvlar;

rassom (muallif) ustaxonasi;

onlayn auksionlar va elektron savdo maydonchalari.

37. Auksion savdolari madaniy boyliklar qiymatining yuqori chegarasini shakllantiradi hamda bunday bitimlar to'g'risidagi ma'lumotlarning ishonchli va haqiqiy emaslik xavfi minimal hisoblanadi.

38. Auksionda shakllanadigan MBO bahosi estimeyt deb ataladi va quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

bolg'acha narxi (lot sotilgan narx);

bolg'acha narxiga qo'shimcha yig'imlar (xaridor tomonidan auksion uyiga to'lanadigan xaridor mukofoti, zaruratga ko'ra, sotib olingan MBO ni mamlakatdan olib chiqish uchun ruxsat olishga sarflanadigan xarajatlar);

agar auksion o'tkazilayotgan mamlakatning amaldagi qonunchiligiga muvofiq MBO ga nisbatan intellektual mulk huquqi mavjud bo'lsa, muallif yoki uning merosxo'rlariga haq to'lash;

transport xarajatlari;

yetkazib berishda MBO ni sug'urtalashga sarflanadigan xarajatlar qiymati,

har bir muayyan holatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan va ko'zda tutilmagan boshqa xarajatlar.

39. Bitta auksion savdosi madaniy boylik obyektining yakuniy narxi bo'lishi mumkin emas. Shunga analog MBO ning kamida ikkita savdosi mavjudligi muallifning muayyan san'at asarlari bo'yicha shakllangan narxlardan dalolat berishi mumkin.

40. Sotuvlarni to'g'ridan-to'g'ri qiyoslash usulidan foydalanganda:

bozorga oid ma'lumotlar tahlil qilinadi va analog-obyektlar (estimeytlar) aniqlanadi;

tanlangan analog-obyektlarning baholash obyekti bilan qiyoslash elementlari (narxni belgilovchi ko'rsatkichlar) aniqlanadi;

tanlangan analog-obyektlarning har biri baholash obyekti bilan narxlarni shakllantiruvchi omillar (qiyoslash elementlari) bo'yicha taqqoslanadi;

baholash obyekti va analog-obyektlar o'rtasidagi narxlarni shakllantiruvchi omillardagi farqlar aniqlanadi;

analog-obyektning narxi (yoki uning solishtirma ko'rsatkichi) aniqlangan farqlarga muvofiq tuzatiladi;

baholanayotgan obyektning qiymati analog-obyektlarning tuzatilgan narxlarini umumlashtirish orqali aniqlanadi.

41. MBOning bozor qiymati sotuvlarni to'g'ridan-to'g'ri qiyoslash uslubiga muvofiq quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$V = V_{kor} \pm Kor$$

bu yerda:

V – MBOning bozor qiymati;

V_{kor} – analog-obyektning sotish (sotishga oid takliflar) qiymati;

Kor – taqqoslanayotgan analog-obyektning tuzatilgan qiymatiga kiritilgan tuzatishlarning baholash sanasidagi umumiy qiymati.

Tuzatishlar asoslangan holda kiritilishi lozim va baholovchi baholash hisobotida tuzatishlar kiritilishi sabablarini hujjatlashtirishi hamda miqdoriy ko'rsatkichlarni hisoblash tartibini ko'rsatishi kerak.

42. Aukcion narxlari bilan ishlashda baholovchi aukcion savdosi sanasiga mos ravishda analog-obyekt narxiga tuzatish kiritishni qo'llashi lozim. Agar sotish sanasi baholash sanasidan farq qilsa, baholash sanasiga tuzatish kiritilishi kerak.

43. Analog-obyektlarning qiymati baholash sanasiga indeksatsiyalash orqali keltiriladi. Indeksatsiyalashni amalga oshirishda baholovchi baholash obyekti uchun xarajatlar elementlarini nazarga olgan holda narx o'zgarishi indekslariga amal qiladi. Xarajatlar elementlari uchun narx o'zgarishi indekslari to'g'risida ishonchli ma'lumotlar mavjud bo'lmaganda, tegishli tarmoqlar uchun narx o'zgarishi indekslaridan yoki baholash obyektining mohiyatiga mos keladigan boshqa indekslardan foydalanish mumkin.

Indeksatsiyalash koeffitsiyenti baholash obyektini yaratishda ishtirok etayotgan ustalarning ish haqi o'zgarishini, eng barqaror valyutaning o'zgarishi yoki materiallar, butlovchi qismlar yoki tayyor mahsulotlar narxlarining o'zgarishi va boshqalarni aks ettiruvchi ko'rsatkich sifatida hisoblanadi.

44. Tuzatishlarning foiz qiymatlari taqqoslanadigan obyekt narxiga beriladigan mulkiy huquqlar, moliyalashtirish shartlari, sotish shartlari, auksionda sotish shartlari bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha xarajatlar, bozor konyunkturasi, joylashuvi, iqtisodiy tavsiflari, foydalanish turi va boshqa komponentlar bo'yicha baholash obyektidan qanchalik oshib ketishi yoki undan pastligini hisobga olish uchun qo'llaniladi.

45. Tuzatishlarni kiritish barcha tuzatishlar kiritilgunga qadar davom ettiriladi. Baholash obyektini ular bo'yicha tuzilgan bitimlar yoki bozorga chiqarilayotgan boshqa analog-obyektlar bilan qiyoslash uchun quyidagi qiyoslash elementlari qo'llaniladi:

sotish shartlari (bitim sanasi va baholash sanasi orasidagi narx o'zgarishi, narxning savdolar jarayonidagi o'zgarishlari);

analog-obyekt xarid qilinganidan keyingi xarajatlar (yetkazib berish, soliqlar va tegishli yig'implarni to'lash);

jismoniy xususiyatlar;

iqtisodiy xususiyatlar;

tarixiy xususiyatlar;

baholash obyektining joylashuvi;

boshqa shartlar.

46. Analog-obyektlar bo'yicha tuzatishlar san'atshunos-ekspertning professional fikri asosidagi ekspert xulosasidan olingan ma'lumotlar, shuningdek, analog-obyektlarni tavsiflovchi ma'lumotlar asosida kiritiladi.

47. MBOning badiiy qiymati, shakli, materiali, bezak turi, texnikasi va tayyorlash murakkabligi bo'yicha tuzatishlar analog-obyekt va baholash obyekt o'rtasida sezilarli farq kuzatilganda, ixtisoslikning mazkur yo'nalishi bo'yicha san'atshunos-ekspertlarni jalb qilish orqali kiritilishi mumkin.

48. Reyting usuli MBOning turli tavsiflarini hisobga oluvchi va uning narxiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy (bazis) qiymatni aniqlash va multiplikativ tuzatishlarni kiritish orqali qo'llanadi.

49. Asosiy (bazis) qiymat quyidagicha hisoblanadi:

bir qiymat uchun (materiallarning solishtirma xarajatlari, ish haqi, qo'shimcha va ma'muriy xarajatlar, agar mavjud bo'lsa);

baholanayotgan MBOning kompensatsiyaviy nusxasini zamonaviy yaratish qiymatini qayta ishlab chiqarishdan kelib chiqqan holda;

tarixiy qiymat yoki tayyorlovchi (muallif) tomonidan amaliy sotish nuqtayi nazaridan baholanayotgan MBOni yaratish davridagi narxini amaldagi narxlar bo'yicha qayta hisoblash (narxlarni indeksatsiya qilish) asosida.

50. MBOning bozor qiymatini hisoblashda tasviriy san'at asari (rasm) misolida ko'rib chiqamiz. MBOning bozor qiymati bazaviy qiymat hamda san'atshunoslik va texnologik ekspertizaning 20 ta mezon (X_i) asosida quyidagi tarzda aniqlanadi:

$$PC = BPC * PK/CBP * (\sum X_{20} / \sum X_{max}) * (1 - K_{\phi y}) * (1 - K_{\phi u}) * (1 - K_{\phi y})$$

bunda:

PC – MBOning bozor qiymati;

BPC – MBOning bazaviy hisob qiymati;

CBP – tasviriy san'at asari (rasm)ning standart bazaviy o'lchami, to'rtta guruhdagi ijro texnikasi orqali belgilanadi:

1-texnika – xolst, moybo'yoq (akril, tempera va boshqalar), katta ishlar uchun 100×120 sm standart o'lcham, o'rta ishlar uchun 70×90 sm standart o'lcham, mayda ishlar uchun 30×50 sm standart o'lcham;

2-texnika – qog'oz, akvarel (guash, pastel va boshqalar), 30×50 sm standart o'lcham;

3-texnika – dastgoh grafikasi (tush, qalam va boshqalar), 20×30 sm standart o'lcham;

4-texnika – mualliflik bosma grafikasi (ofort, litografiya, o'yma va boshqalar), standart o'lcham 20×30 sm;

PK – tasviriy san'at asari (rasm)ning kvadrat santimetrda o'lchami;

Xmax – san'atshunoslik va texnologik ekspertizaning mezonlari bo'yicha umumiy ball.

51. Umumiy eskirish quyidagi komponentlar asosida aniqlanadi:

Kфун – funksional eskirish koeffitsiyenti;

Kфu – jismoniy eskirish koeffitsiyenti. Ushbu koeffitsiyent mazkur Metodikaning ilovasida keltirilgan MBOning jismoniy holatini ekspert baholash shkalasi bo'yicha aniqlanadi;

Kэy – iqtisodiy eskirish koeffitsiyenti.

52. MBOning bazaviy qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$\mathbf{BPC = BPB * BC}$$

bunda:

BPC – MBOning bazaviy hisoblash qiymati (minimal);

BC – MBOning foydalanilayotgan texnika asosidagi bazaviy qiymati.

53. Quyidagi holatlarda qiyosiy yondashuv MBOni baholash uchun yagona yondashuv sifatida qo'llanishi mumkin:

baholash obyekti yaqin vaqt ichida qo'llanayotgan qiymat turiga mos ravishda e'tiborga olinishi mumkin bo'lgan bitim asosida sotilgan bo'lsa;

baholash obyekti, u bilan bir xil yoki analog MBolar bozorda faol muomalada aylanayotgan bo'lsa;

baholash obyekti bilan bir xil yoki analog MBolar bilan tez-tez bo'ladigan va (yoki) yaqin vaqt ichida tuzilgan bitimlar mavjud bo'lsa;

muallifning asarlari auksionlar yoki ko'rgazmalarda sotilgan bo'lsa.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan mezonlar mavjud bo'lmagan taqdirda, quyidagi holatlarda qiyosiy yondashuv natijasida olingan qiymat ko'rsatkichini qo'llab-quvvatlash uchun boshqa yondashuvlarni ham qo'llash imkoniyati ko'rib chiqilishi lozim:

baholanayotgan MBO yoki analog-obyektlar bilan bozorda tuzilayotgan bitimlar bozorning beqarorligi va faolligining mavjud darajasini hisobga olgan holda unchalik yangi bo'lmasa;

baholanayotgan MBO yoki analog-obyektlar bozorda o'zaro muomalada bo'lsa-da, biroq unchalik faol bo'lmasa;

bozor kelishuvlari to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud, biroq taqqoslanayotgan MBolar baholash obyektidan sezilarli darajada farq qilsa, bu esa tuzatishlar kiritishni talab qilishi mumkin bo'lsa;

MBO bilan yaqin vaqt ichida amalga oshirilgan bitimlar to'g'risidagi ma'lumotlar ishonchli bo'lmasa (ya'ni, mish-mishlar, ma'lumotlarning yo'qligi, sinergetik xaridor, bozor shartlariga mos bo'lmagan bitim, muammoli sotuv va boshqalar);

MBOning qiymatiga ta'sir qiluvchi muhim omil uni ishlab chiqarish xarajatlari yoki uning foyda keltirishi imkoniyati emas, balki bozorda unga beriladigan narx bo'lsa.

Shuningdek, olingan natijalarni muvofiqlashtirish jarayonida qiyosiy yondashuv natijasi katta ahamiyatga ega bo'ladi.

54. Bozorda mavjud bo'lgan dastlabki ma'lumotlarga bog'liq holda MBOni baholash jarayonida turli xil miqdoriy (miqdoriy to'g'rilash uslubi, juft sotuvlar uslubi va boshqalar) va sifatga oid uslublardan (ekspert baholash uslubi va boshqalar), shuningdek, ularning kombinatsiyalaridan foydalanish mumkin.

Sifatga oid uslublardan foydalanganda MBOni baholash analog-obyektlar bilan amalga oshirilgan bitimlar va (yoki) takliflar qiymatini tahlil qilish yoxud san'atshunos-ekspertlardan olingan tegishli ma'lumotlarni o'rganish va tanlangan baholash yondashuvi metodikasidan foydalanish yo'li bilan amalga oshiriladi.

55. Statistik tahlil usullarini qo'llashda baholovchi baholash obyektining bozor segmenti ma'lumotlaridan foydalangan holda ushbu obyekt bozoriga mos keladigan qiymatni belgilaydi va unga muvofiq tegishli narxning hisoblash qiymatini aniqlaydi.

2-§ Daromad yondashuvi

56. Madaniy boylikning har bir baholanayotgan objekti uchun daromad yondashuvini qo'llash imkoniyatini belgilashda uning daromad olish qobiliyatini o'rganish kerak. Bunday daromadlar qatoriga baholanayotgan madaniy boyliklar qo'yilgan muntazam faoliyat olib boruvchi ko'rgazmadan keladigan pul tushumlari yoki baholanayotgan MBO keltiradigan boshqa daromad (foyda) manbai kirishi mumkin.

57. Bunda MBOning iqtisodiy muomalada bo'lish muddati nomuayyan ekanligini ham e'tiborga olish lozim.

58. Baholangan MBODan kelayotgan daromadlarni ishonchli aniqlash imkoniyati mavjud bo'lsa, uning qiymati iqtisodiy muomalada bo'lish davri uchun kutilayotgan ushbu daromadlarni kapitallashtirish yoki diskontlash yo'li bilan aniqlanadi.

59. Baholash jarayonida daromad yondashuvni qo'llagan holda baholovchi:

prognoz davrini belgilashi kerak. Prognoz davri deganda kelajakdagi davr tushunilib, unda baholash sanasidan boshlab baholash objekti tomonidan keltirilishi kutilayotgan daromadlarni, shuningdek, baholash objekti va daromad olish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, shu jumladan amaldagi qonunchilikka muvofiq o'rni to'ldirilmaydigan soliqlar va yig'imlarni prognozlash ham amalga oshiriladi.

baholash obyektining prognoz davrida daromadlar oqimini keltirish qobiliyatini o'rganish, shuningdek, prognoz davridan keyingi davrda obyektning daromadlar oqimini keltirish qobiliyati to'g'risida xulosa chiqarish;

kelajakdagi daromadlar oqimlarini baholash sanasiga yetkazish uchun foydalaniladigan baholash objekti bilan tavakkalchilik nuqtayi nazaridan taqqoslanadigan investitsiya obyektlariga qo'yilmalar daromadlilikini aks ettiruvchi diskont stavkasini aniqlash;

kutilayotgan daromadlar oqimini baholash sanasidagi qiymatga keltirish jarayonini amalga oshirish.

60. Alohida noyob qimmatga ega bo'lgan MBolar uchun saqlash (bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish, restavratsiya qilish, reklama aksiyalari va boshqalar) xarajatlarini hisobga olish va avtorizatsiyalash (MBO ekspertiza xarajatlari, ko'chirish uchun ruxsat olish va boshqa) ishlarini amalga oshirish zarurati yuzaga kelishi mumkin.

3-§ Xarajat yondashuvi

61. Xarajat yondashuvini qo'llash MBOni qayta tiklash uchun ketadigan xarajatlar miqdorini hisobga olish imkoniyatini puxta ko'rib chiqishni talab etadi. MBOning noyobligi narxni shakllantiruvchi asosiy omil hisoblanadi.

62. Madaniy boyliklarning ba'zan yaratilish yoshi ahamiyatga ega bo'lib, ularni qayta yaratishni modellashtirishda yetarlicha to'g'ri hisobga olish qiyin bo'lgan iqtisodiy sharoitlarda yaratilganligi hisobga olinishi lozim. Baholash obyektiga o'xshash (o'rnini bosuvchi) MBOni qayta yaratish uning haqiqiyliги va tarixiy-madaniy qiymatini yo'qotish ehtimoli bilan bog'liq bo'ladi. Noyob va qayta takrorlab bo'lmaydigan MBOni qayta yaratish yoki almashtirish mumkin emas.

63. Xarajat yondashuvini qo'llash uchun tegishli ma'lumotlar mavjud bo'lsa, bu yondashuvni seriyali va ommaviy MBOlarga nisbatan qo'llash lozim.

64. Xarajat yondashuvini qo'llashda, agar haqiqiyliги va tarixiy-madaniy qiymatini yo'qotish prinsipial ahamiyatga ega (narxni shakllantiruvchi asosiy omil) bo'lmasa, baholanayotgan MBOni xarid qilish, qayta yaratish yoki o'rnini bosish uchun zarur bo'lgan xarajatlar aniqlanadi.

65. Qayta yaratish xarajatlari baholanayotgan MBOning asl nusxasi yaratilgan davrdagi uslublar (texnologiyalar)ni qo'llagan holda tabiati, sifati va yoshi nuqtayi nazaridan unga yaqin bo'lgan materiallardan qayta tayyorlangan aniq nusxasi (original) uchun to'lanishi mumkin bo'lgan pul miqdorini bildiradi.

66. O'rnini bosish xarajatlari baholash obyektiga o'xshash yoshi, o'lchami, rangi va holatdagi MBO uchun to'lanadigan pul miqdorini bildiradi. Mazkur xarajatlar baholash obyektiga muqobil nusxani yoki uning replikasini yoxud imkon qadar asl nusxaga yaqinroq bo'lgan, ammo zamonaviy usullar yordamida qayta yaratilgan nusxasini yaratish (sotib olish) xarajatlariga asoslanadi.

67. Xarajat yondashuvini qo'llash sanoat tomonidan ishlab chiqariladigan, ko'p nusxalarga ega bo'lgan tasviriy va amaliy san'at obyektlari (seriyali yoki ommaviy ishlab chiqarish) kabi MBOlarni baholashda foydali bo'lishi mumkin (masalan, zargarlik buyumlari, keramika buyumlari va haykalchalar, shtamlash orqali tayyorlangan mahsulotlar, gilamlar, yog'och o'ymakorliги va boshqalar).

68. Quyidagi holatlarda xarajat yondashuvi MBO qiymatini baholashning yagona yondashuvi sifatida ishlatilishi mumkin:

ishtirokchilar baholanayotgan obyekt bilan deyarli bir xil foydalilikka ega bo'lgan MBOni hech qanday me'yoriy yoki huquqiy cheklovlarisiz qayta yaratishga qodir bo'lganda va bu madaniy boyliklar obyekti shu qadar tez yaratilganidan bozor qatnashchisi baholanayotgan MBOdan darhol foydalanish imkoniyati uchun katta miqdorda pul to'lashni xohlamaganda;

baholanayotgan MBO bevosita daromad keltirmaganda hamda uning o'ziga xos xususiyati foydali va (yoki) qiyosiy yondashuvlardan foydalanishga imkon bermaganda;

amaldagi qiymat turi asosan xarajatlarga asoslansa;

MBOni qayta yaratish yoki almashtirish zaruriyati mavjud bo'lganda.

69. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan mezonlarga rioya qilinmasa, quyidagi holatlarda xarajatlar yondashuvi natijasida olingan qiymat ko'rsatkichini mustahkamlash uchun boshqa har qanday yondashuvlarni ham ko'rib chiqish kerak:

ishtirokchilar MBOni qiyosiy foydalilik bilan qayta tiklash imkoniyatini ko'rib chiqishlari mumkin, biroq o'xshash MBOni yaratish bilan bog'liq bo'lgan qonuniy to'siqlar mavjud bo'lsa yoki ko'p vaqt talab qilsa;

MBO yaqin vaqt ichida yaratilgan va shu sababli xarajatlar yondashuvida ishlatiladigan taxminlar yuqori darajadagi ishonchlilikka ega bo'lsa.

70. Madaniy boyliklar boshqa uslublar yoki ularni kombinatsiyalash orqali ham baholanishi mumkin.

Baholovchi boshqacha hisob-kitob metodikasidan foydalanish va tanlangan yondashuvlarning har biri doirasida MBO ni baholash uslubini (usullarini) mustaqil ravishda belgilash huquqiga ega. Bunda u muhimlik, asoslanganlik, aniqlik, tekshiruvchanlik va yetarlilik tamoyillariga asoslanadi. Shuningdek, baholash hisobotida baholovchi tomonidan tanlangan uslub(uslublar)ga ta'rif berilishi lozim. Bu baholash hisobotidan foydalanuvchiga qiymatni aniqlash jarayoni mantig'ini va baholovchi tomonidan tanlangan uslub(uslublar)ning baholash obyektiga va baholash prinsiplariga muvofiqligini tushunish imkonini beradi.

4-§ Baholash natijalarini muvofiqlashtirish

71. Baholash natijalarini muvofiqlashtirish va baholash obyektining yakuniy qiymatini aniqlash 6-son MBS "Baholash yondashuvlari va usullari"ga muvofiq amalga oshiriladi.

72. MBO ni xarajatlar va qiyosiy yondashuvlarni qo'llagan holda baholashda analog-obyektlar bilan baholash sanasidan keyin sodir bo'lgan, shu jumladan, narxni teskari indeksatsiyalash to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanishga ruxsat beriladi. Bunda baholovchi baholash kunidan tegishli voqea sodir bo'lgan kungacha bo'lgan davrdagi narxlar dinamikasini tahlil qiladi va tegishli tuzatishlarni kiritadi. Agar baholovchi hisobotda baholash sanasida mavjud bo'lgan bozor ko'rsatkichlariga muvofiqligi uchun olingan hisoblash qiymatlarining tahlilini, shuningdek ushbu ma'lumotlardan foydalanish bilan bog'liq taxminlarni amalga oshirgan va oshkor qilgan bo'lsa, bunday narx ma'lumotlaridan foydalanishga yo'l qo'yiladi.

5-bob. Ayrim MBOLarni baholashning o'ziga xos xususiyatlari

73. Tijorat maqsadida daromad olish uchun foydalanilmaydigan noyob MBOLarni baholashda xarajatlar yondashuvi ularni baholashning yagona yondashuvi hisoblanadi.

74. Baholanayotgan MBOLarning muayyan xususiyatlarini hisobga olgan holda baholash hisoboti hisobotdan foydalanuvchiga qiymatni aniqlash jarayonining mantig'ini va baholovchi tomonidan tanlangan uslub (uslublar)ning baholash objekti, baholash tamoyillari, aniqlanayotgan qiymat turi va ko'zda tutilayotgan baholash natijalaridan foydalanishga qanchalik mos kelishini tushunish imkonini berishi lozim.

"Madaniy boyliklar qiymatini baholash"
Milliy baholash standarti (16-son MBS) Metodikasiga
ILOVA

Madaniy boylik obyektlarining jismoniy holatini ekspert baholash SHKALASI

Madaniy boylik obyektlarining jismoniy holatini baholash	Madaniy boylik obyektlari jismoniy holatining umumiy tavsifi	Eskirish darajasi, foizda
A'lo	Madaniy boylik obyektining shikastlanish va deformatsiyasi mavjud emas, joriy ta'mirlash vaqtida bartaraf etiladigan va umumiy ko'rinishiga ta'sir qilmaydigan individual mayda nuqsonlar mavjud	0-5
Yaxshi	Madaniy boylik obyektining shikastlanish va deformatsiyasi mavjud emas, joriy ta'mirlash vaqtida bartaraf etilishi mumkin bo'lgan va	6-15

	obyektning noyobligini hisobga olgan holda tashqi ko'rinishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydigan mayda nuqsonlar mavjud. Ular ta'mirlash jarayonida osongina bartaraf etiladi.	
Qoniqarli	Madaniy boylik obyektining umumiy elementlari yaroqli, tashqi ko'rinishi ancha eskirgan, mayda teshikchalar, darz ketgan joylar, qoplama sirtida nuqsonlar ko'rinadi.	16–40
Qoniqarsiz	Madaniy boylik obyektining elementlari shikastlangan, jiddiy nuqsonlar, darz ketishlar, ba'zi elementlarining yetishmasligi mavjud, ammo restavratsiya qilish mumkin.	41–60
Eskirgan	Madaniy boylik obyektining elementlari eskirgan, jiddiy nuqsonlar, darz ketgan joylar, katta elementlarning yetishmasligi mavjud, jiddiy restavratsiya qilinmasa, u badiiy ahamiyatga ega emas, ammo tarixiy ahamiyatga ega.	61–80
Yaroqsiz	Madaniy boylik obyektini yaroqsiz yoki vayron bo'lgan holatda, restavratsiya qilib bo'lmaydi, badiiy qimmatga ega emas, ammo tarixiy qiymatga ega.	81–100

”.